

KASBIY REFLEKSIYA ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH**Sheratova Hayotxon**Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada kasbiy refleksiya asosida bo‘ljak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari hamda o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi, kasbiy refleksiyaga doir muammolar va yechimlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy refleksiya, pedagog, ta‘lim majmui, inson faoliyati, fikrlash qobiliyati.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to‘g‘risida va insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zgarimoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma‘naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

Ta‘limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o‘qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to‘g‘risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqiyat qozonadi.

Inson hayoti sharoitlarini o‘zgartiruvchi va insonni o‘zini ham o‘zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta‘limning umumiy asosidir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko‘rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi. Biroq ichki munosabatlar, ular o‘rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo‘lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir. Ma‘lumki, inson o‘z g‘oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo‘llaydi va qayta yaratadi.

Talabalar yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi axborotga tanqidiy yondashishlari uchun ta‘lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. Talaba belgilangan maqsad asosida o‘ylab, fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o‘ziga va sherigiga) og‘zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo‘ladi. Shunday qilib, ilgari olingan bilimlar anglash darajasiga olib chiqiladi. Endi ular yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun negiz bo‘lishi mumkin. Subyektning ichki jarayonlari va holatlarini o‘zi tomonidan bilib borishi esa refleksiya (ba‘zan meta-bilish) deb ataladi.

Refleksiya (lotincha “reflexio” – orqaga qaytish) falsafiy tushuncha bo‘lib, u individ ongida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida o‘zining mulohaza yuritishini anglatadi. Refleksiya – bu subyektning faqatgina o‘zini-o‘zi tushunishi bo‘libgina qolmay, balki u “refleksiyalanuvchi” ni, uning shaxsiy xususiyatlari, ta‘sirga javob berishining ifodalanganligi va bilishga oid tasavvurlarning oydinlashtirilishi hamda boshqalar tomonidan tushunilishini ham anglatadi. Ushbu fazaning eng muhim vazifasi esa, yangi o‘quv materialining tushunilishiga erishishdan iboratdir. Faol talabalar xabarni eshitib, odatda savol beradilar yoki tushunmaganlarini keyinchalik aniqlash uchun yozib qo‘yadilar. Sust o‘quvchilar esa bunday qilmaydilar, ular vujudga kelgan chalkashliklar, anglashilmovchiliklar haqida yoki nimanidir tushunmay qolganlari haqida o‘ylab ham ko‘rmaydilar.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida. O‘zi fikr yuritishi jarayoni, o‘z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e‘tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyaning insonning o‘z-o‘zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e‘tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta‘kidlashadi. Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar. O‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatida refleksiya jarayonini o‘rganib, ko‘plab olimlar uning kommunikativ hamda kooperativ turlarini ustun qo‘yadilar, aynan ushbu usullar o‘qituvchining pedagogik faoliyatida

va o'quvchilar bilan muloqotida ko'proq namoyon bo'ladi, deb hisoblaydilar (V.A.Krivosheev, G.P. Shchedrovitskiy va boshqalar). Biroq, bizningcha, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari xilma-xil bo'lganligi sababli refleksiyaning har bir turini alohida o'rganib tahlil qilish mumkin emas, zero ular ma'no jihatidan bir - birlari bilan o'zaro bog'liq. N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning «mazmuni, sherigining ichki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat boigan individlar bir - birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o'z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir». U refleksiyaning pedagogik qobiliyatlar nuqtai nazaridan o'rganib, ilk bor o'qituvchining reflektiv - persektiv qobiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi. N.V.Kuzmina pedagogik intuitsiyaning shakllanishi reflektiv pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Metakognitiv (refleksiv) faoliyat atamasi ko'pincha bu sohada olib borgan keng ko'lamlil tadqiqotlari uchun Jon Flavell bilan bog'liq. Ushbu amerikalik rivojlanish psixologi bu konsepsiyani 1979-yilda birinchi marta ishlatgan. Flavell metakognitiv (meta-bilish) idrokni bilish va boshqarishni anglatishini tushuntirdi. Umuman olganda, metakognitiv odamlarning o'zlarining bilim tajribalarini aks ettirish va tartibga solish qobiliyatiga ishora qiladi. Ushbu jarayon bizning idrok funksiyalarimizga tegishli, ular bilim jarayonlarini nazorat qilish va tartibga solish bilan bog'liq.¹ Ya'ni, e'tiborni, ishlaydigan xotirani modulyatsiya qilish, rejalashtirish, xatti-harakatlarni tormozlash, hissiyotlarni boshqarish va hokazo.

Metakognitiv bilim – bu insonning hayoti davomida egallagan bilimlari, shuningdek, egallangan bilimlarning o'zlashtirilish qonuniyatlari, egallangan bilimlarning turli jarayonlarga nisbatan to'g'ri yo'naltirilishi hamda bilimlarni qachon, qayerda va qay tartibda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan bilimlar majmui hisoblanadi. Metakognitiv bilim tarkibi 3 toifadagi bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bular deklarativ bilim, protsessual bilim va shartli bilim.

Deklarativ bilim – axborotni qanday ishlashimiz nuqtayi nazaridan biz o'zimiz va boshqalar haqida bilamiz. Bunga talaba yoki fikrlovchi sifatida o'zimiz haqimizda olgan bilimlarimiz hamda faoliyatimizga ta'sir etuvchi omillar kiradi. Shuningdek, deklarativ bilim biz egallagan bilimlar hamda ularning o'zlashtirilish qonuniyatlarini o'z ichiga oladi.

Bu shuni anglatadiki, biz biror axborotni o'rganish jarayonimizga tanqidiy yondashgan holda tahlil qilsak, mazkur axborotlar qanday qonuniyatlar asosida qabul qilinayotganligini bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Protsessual bilim – bu shunday bilimki, o'zlashtirilgan deklarativ bilimlarni turli xil vaziyatlarga mos tarzda qo'llay olishni rejalashtirishga oid bilimlardir. Ya'ni, bu bizning turli xil vazifalarni bajarish strategiyamiz va protseduralarimiz haqidagi bilimlarimizdir.

Shartli bilim – bu deklarativ va protsessual bilimlardan qachon va nima uchun foydalanilishini bilishdir. Mazkur toifadagi bilimlar har bir soha vakillari uchun katta ehtiyojga aylangan.

Ushbu fikrimizning isboti sifatida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, soha va sohaga doir bilimlarni qachon va qay tartibda qo'llashga doir bilimlarning yetishmasligi sabab ko'plab sohalarda natijaviy ko'rsatgichlar past darajada².

Tanqidiy fikrlash alohida mahorat emas, balki bolaning rivojlanishi va ta'lim olish jarayonida asta-sekin shakllanadigan ko'plab ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Agar darslarda talabalar passiv tinglovchilar bo'lmasalar va aksincha ular o'rganganlarini o'zlarining amaliy tajribalari bilan bog'lab, doimiy faol ravishda ma'lumot qidirsalar, tezroq shakllanadi. Bundan tashqari, talabalar ma'lumotlarning ishonchiligi yoki ishonchsizligiga shubha qilishni, dalillar mantiqini tekshirishni, xulosa chiqarishni, nazariy bilimlardan foydalanish uchun yangi misollar tuzishni, qarorlar qabul qilishni, sabab va oqibatlarini o'rganish kabi turli hodisalarni o'rganishlari kerak.

¹ Livingston, Jennifer A. "Metakognitiv: umumiy ko'rinish". 2003. 3-B. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED474273.pdf>

² Грудзинская Е.Ю. Нетрадиционный подход к проведению семинаров в курсе «Концепции современного естествознания» (Тезисы доклада) // Региональная научно-методическая конференция «Учебный предмет «Естествознание в школе и вузе» 25–29 марта 2000г. Н.Новгород, ННГУ, 2000. С.51–52

Kasbiy refleksiya — bu o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o‘zgarishlarni anglash va ularga mos ravishda o‘rganish jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchilarni o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va samarali ta‘lim berish uchun zarur bo‘lgan muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilar uchun kasbiy refleksiya, o‘z pedagogik faoliyatlarini tahlil qilish va yaxshilashga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning ta‘lim sifatini oshirishga olib keladi.

Kasbiy refleksiya o‘qituvchining o‘z amaliy faoliyatini baholashga asoslanadi. Bu jarayon orqali o‘qituvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglab, o‘z ishlash usullarini yangilash va takomillashtirishga imkon yaratadi. Pedagogik refleksiya quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- **O‘z faoliyatini tahlil qilish:** O‘qituvchi o‘zining dars jarayonini, metodlarini va usullarini tahlil qilib, ular qanday natijalar berayotganini o‘ylaydi.
- **O‘zgarishlarga tayyorlik:** O‘qituvchi tahlil qilib, o‘zgarishlar kiritish va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayyor bo‘ladi.
- **O‘quvchilarga qarashni o‘zgartirish:** Pedagogik refleksiya o‘qituvchiga o‘quvchilarning ehtiyojlarini va xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda kasbiy refleksiyaning o‘rni juda katta. Ushbu jarayon o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirishi, uning o‘z kasbiy faoliyatiga mas‘uliyat bilan yondashishiga yordam beradi. Kasbiy refleksiya asosida pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. **Amaliy mashg‘ulotlar va tajriba almashish:** O‘qituvchilar o‘z tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rish va turli pedagogik yondashuvlar haqida fikr almashish orqali o‘zlarining pedagogik malakalarini oshiradilar.
2. **Kritik fikrlashni rivojlantirish:** O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholashda kritik fikrlashni o‘rganishadi. Bu, o‘qituvchining muammolarni hal qilish, yangi metodlarni qo‘llash va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi.
3. **Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish:** O‘qituvchilar kasbiy refleksiya asosida o‘z faoliyatlarini takomillashtirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga intilishadi.
4. **O‘quvchilar bilan aloqani yaxshilash:** O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilib, o‘quvchilar bilan samarali aloqalar o‘rnatishga va ularning psixologik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.
5. **O‘zini-o‘zi baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish:** Pedagogik refleksiya orqali o‘qituvchilar o‘zini o‘zi baholab, kelajakdagi faoliyatini yaxshilash uchun zarur o‘zgarishlarni amalga oshirishadi.

Kasbiy refleksiya vositalari

1. **Darsni tahlil qilish:** O‘qituvchilar dars jarayonini yozib, uni tahlil qilib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini va metodlarning samaradorligini baholaydilar.
2. **O‘z-o‘zini baholash:** O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholab, qaysi sohalarida yaxshilanish kerakligini aniqlashadi.
3. **Konsultatsiyalar va seminarlar:** O‘qituvchilar o‘z kasbiy refleksiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun pedagogik konsultatsiyalar va seminarlar tashkil etadilar.
4. **Pedagogik jurnal va portfel:** O‘qituvchilar o‘z faoliyatlari va o‘quvchilarning natijalarini hujjatlashtirish orqali o‘z yutuqlarini va kamchiliklarini ko‘rib chiqadilar.

Kasbiy refleksiya bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini tahlil qilib, yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishga tayyor bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning ta‘lim sifatini oshirishga va ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Kasbiy refleksiya bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki pedagogik faoliyatini yuksaltirishda ham katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -289-298 b.

2. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2010.
1. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. -T.: O'qituvchi, 1999.
2. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). _T.: O'qituvchi, 1994.
3. Livingston, Jennifer A. "Metakognisiya: umumiy ko'rinish". 2003. 3-B. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED474273.pdf>
4. Грудзинская Е.Ю. Нетрадиционный подход к проведению семинаров в курсе «Концепции современного естествознания» (Тезисы доклада) // Региональная научно-методическая конференция «Учебный предмет «Естествознание в школе и вузе» 25–29 марта 2000г. Н.Новгород, ННГУ, 2000. С.51–52